“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=328

2025-yil
3-son
oktabr
ISSN 3093-8546



MDH va YI tashkilotlari doirasida yuridik shaxsning davlat mansubligini aniqlash muammolari

Abdurauf Abduqodirov,
Toshkent xalqaro universiteti o‘qituvchisi
Huquqshunos
e-mail: mustread707@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada yuridik shaxsning shaxsiy qonuni hamda qaysi davlatga mansubligini aniqlashning nazariy va amaliy masalalari MDH hamda Yevropa ittifoqining xalqaro shartnomalari, milliy qonunchiligi misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda MDH doirasida yuridik shaxsning shaxsiy qonunini belgilashda inkorporatsiya mezonining ustuvorligi alohida qayd etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi ham ushbu mezonni qo‘llashi ko‘rsatilgan. Yevropa ittifoqi qonunchiligida esa domitsil tushunchasi va uni aniqlash mezonlari (ustav manzili, ma’muriy markaz, asosiy xo‘jalik faoliyati joyi) ko‘rib chiqilgan bo‘lib, unda ko‘proq o‘troqlik mezoniga ustuvorlik berilishi ta’kidlangan. Shuningdek, MDHda qonunchilikni unifikatsiya qilishdagi muammolar va model qonunlarning milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishidagi kamchiliklar tahlil etiladi.

Калит сўзлар. yuridik shaxs shaxsiy qonuni, yuridik shaxs millati, inkorporatsiya mezoni, o‘troqlik mezoni, domitsil, xalqaro xususiy huquq, MDH, Yevropa ittifoqi, kollizion norma, model qonunlar.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические вопросы определения личного закона юридического лица и его национальности на примере международных договоров и национального законодательства стран СНГ и Европейского Союза. В исследовании особо отмечено преобладание критерия инкорпорации при определении личного закона юридического лица в рамках СНГ, в том числе показано, что законодательство Республики Узбекистан также применяет этот критерий. В законодательстве Европейского Союза рассмотрено понятие домицилия и критерии его определения (уставный адрес, административный центр, место основной хозяйственной деятельности), при этом подчеркивается, что там предпочтение отдается критерию оседлости. Также анализируются проблемы унификации законодательства в СНГ и недостатки имплементации модельных законов в национальное законодательство.

Ключевые слова. Личный закон юридического лица, национальность юридического лица, критерий инкорпорации, критерий оседлости, домицилий, международное частное право, СНГ, Европейский Союз,

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

коллизионная норма, модельные законы.

Annotation. This article analyzes the theoretical and practical issues of determining the personal law of a legal entity and its nationality using examples from international treaties and national legislation of CIS countries and the European Union. The study particularly notes the prevalence of the incorporation criterion in determining the personal law of legal entities within the CIS, including showing that the legislation of the Republic of Uzbekistan also applies this criterion. In the legislation of the European Union, the concept of domicile and its criteria (statutory seat, administrative center, place of principal business activity) are examined, emphasizing that the seat criterion is generally preferred there. Additionally, the article analyzes the problems of unification of legislation within the CIS and the shortcomings of implementing model laws into national legislation.

Keywords. Personal law of a legal entity, nationality of a legal entity, incorporation criterion, seat criterion, domicile, private international law, CIS, European Union, conflict-of-laws rule, model laws.

MDH davlatlarida yuridik shaxsning shaxsiy qonunini aniqlash masalasi uzoq vaqtdan beri xalqaro xususiy huquqning muhim mavzularidan biri bo‘lib kelmoqda. Bu masala, xususan, kompaniyalarning huquqiy maqomi, uning ta’sis etilishi, qayta tashkil etilishi, tugatilishi, shuningdek, uning ishtirokchilari va boshqa shaxslar bilan munosabatlarini tartibga soluvchi qoidalarni belgilashda asosiy ahamiyat kasb etadi. MDH doirasida qabul qilingan xalqaro shartnomalarda inkorporatsiya mezonining ustuvorligini ko‘rish mumkin, ya’ni MDHga a’zo davlatlar bir qator xalqaro shartnomalarda yuridik shaxsning shaxsiy qonunini aniqlash uchun yagona kollizion normani o‘rnatishgan. Yuridik shaxsning ta’sis etilgan joy qonuni ushbu vazifani bajaradi. Jumladan, “Xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq nizolarni hal qilish tartibi to‘g‘risida”gi Bitimning 11-modda, a-kichik bandiga ko‘ra yuridik shaxsning huquqiy layoqati va layoqatsizligi (shaxsiy qonuni) uning ta’sis etilgan joy qonuni bilan belgilanadi [1].

Shuningdek, Fuqarolik, oilaviy va jinoyiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi Minsk konvensiyasining 23-modda, 3-bandida yuridik shaxsning shaxsiy qonuni uning ta’sis etilgan joy qonuni bilan belgilanadi va shu o‘rinda ushbu Konvensiyada “shaxsiy qonun” tushunchasi emas, “huquqiy layoqat” tushunchasi qo‘llanilganligini qayd etish lozim [2]. Huddi shunday norma “Fuqarolik, oilaviy va jinoyiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida”gi Kishinev konvensiyasining 26-modda, 3-bandida mustahkamlangan [3], ya’ni saqlab qolingan.

Biroq, ayrim xalqaro shartnomalar inkorporatsiya mezoni bilan boshqa mezonlarni ham qo‘llash imkoniyatini taqdim etadi. Xususan, 1998 yil 25 noyabrda imzolangan “Davlatlararo lizing

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

to‘g‘risida”gi Konvensiyaning 2-modda, 2.3-bandiga ko‘ra xo‘jalik faoliyati sub’ekti (yuridik shaxs) lizing faoliyati sub’ekti bo‘lishi uchun Konvensiyaga a’zo davlat hududida ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishi va ana shu hududda doimiy faoliyat joyiga ega bo‘lishi talab etiladi [4]. Ya’ni, mazkur Konvensiya rasmiy o‘troqlik mezonini qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq, ushbu xalqaro hujjat MDHga a’zo 5 davlat tomonidan (Armaniston, Belarus, Qirg‘iziston, Tojikiston, Ukraina) imzolangan, xolos. O‘zbekiston ushbu Konvensiyaning ishtirokchisi emas.

Shu o‘rinda qayd etish lozimki, Yevropa Parlamenti va Yevropa Kengashi tomonidan yuridik shaxs faoliyatiga oid qabul qilingan bir qator direktivalarda ham yuridik shaxsning shaxsiy qonuniga oid ayrim qoidalar belgilangan. Xususan, “Kompaniya huquqining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi direktivani misol qilib keltirish mumkin [5]. Ammo, ushbu hujjat faqat mas’uliyati cheklangan jamiyatni huquqiy tartibga soladi va bunda shaxsiy qonunni aniqlash masalasiga umuman e’tibor qaratilmagan.

Ayni paytda, YIda shaxsiy qonun tushunchasining sinonimi sifatida domicil atamasidan foydalaniladi. Ushbu tushuncha 2015 yilda qabul qilingan 1215-sonli “Fuqarolik va xo‘jalik nizolariga nisbatan yurisdiksiya va sud qarorlarini majburiy ijro etish masalalari to‘g‘risida”gi Reglamentda (keyingi o‘rinlarda 1215-sonli Reglament) sud yurisdiksiyasini o‘rnatish maqsadida foydalanilgan [6, art4] va ushbu hujjat yuridik shaxsning domicilini aniqlash mezonlarini ko‘rsatib bergan. Jumladan, 1215-sonli Reglamentning 4-moddasida millatidan qat’i nazar YIga a’zo davlat hududida domicilga ega bo‘lgan shaxs sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilish huquqi belgilangan. O‘z navbatida, 1215-sonli Reglamentga asosan yuridik shaxsning domicili quyidagi mezonlardan biri asosida aniqlanishi mumkin:

ustavda yozilgan manzili (statutory seat);
ma’muriy markaz;
asosiy xo‘jalik faoliyati joyi.

Ayni paytda, 1215-sonli Reglamentda qo‘llanilgan domicil yuridik shaxsning lex societatisni ochib bermaydi, ya’ni domicil tushunchasidan faqat 1215-sonli Reglament maqsadlarida foydalanilgan.

Bundan tashqari, T.C. Hartley 1215-sonli Reglamentdagi “ustavda yozilgan manzil” tushunchasini ikki xil talqin qilish mumkin deb hisoblaydi. Birinchisi, fransuz modeli asosida “real o‘troqlik”ni, ya’ni kompaniyaning real joyi uning ustavda ko‘rsatilgan manzili bilan mos kelishi kerak. Ikkinchisi esa inkorporatsiya mezoniga muvofiq kompaniyani ro‘yxatdan o‘tishi ahamiyatga ega [7, p.78]. T.C. Hartleyning fikrini 1215-sonli Reglamentning 63-modda, 2-qismida bayon etilgan qoida qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Chunki, unga ko‘ra statutory seat Buyuk Britaniya, Irlandiya, Kipr uchun ro‘yxatdan o‘tgan ofis, agar bunday ofis mavjud bo‘lmasa shunday rasmiylashtirish tugallangan joy ma’nosini anglatadi [6, art.63]. Bu statutory seatni inkorporatsiya mezoni deb talqin qilish mumkin

degan xulosani keltirib chiqaradi. Demak, 1215-sonli Reglament Buyuk Britaniya, Irlandiya, Kiprni istisno etgan holda (ular uchun inkorporatsiya) real, formal o‘troqlik va asosiy xo‘jalik faoliyati joyi mezonlarini yuridik shaxsning domicilini aniqlash uchun qo‘llaydi. Shunday qilib, 1215-sonli Reglament inkorporatsiyadan ko‘ra o‘troqlik mezonini afzal ko‘rmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, MDH doirasida yuridik shaxs shaxsiy qonunini huquqiy tartibga solishning xalqaro shartnomalarni unifikatsiya qilish yo‘lida ijobiy tajriba mavjud emas. Shu boisdan MDHga a’zo davlatlar o‘z milliy qonunchiligini turli sohalarga oid model qonunlarni qabul qilish bilan garmonizatsiya qilishga harakat qilishmoqda.

MDHga a’zo davlatlarning qonunchiligini birlashtirishda xususiy huquq sohasida Parlamentlararo Assambleya tomonidan qabul qilingan bir qator hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘rinda MDH Model Fuqarolik kodeksi alohida o‘rin tutadi. Ammo, shu va boshqa model qonunlarning kamchiligi ularning model hujjat ekanligida, ya’ni ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish majburiyati a’zo davlatlarda mavjud emas.

Qolaversa, ushbu model qonunlar milliy qonunchilikka implementatsiya qilingan taqdirda ham davlatlar istalgan vaqtda ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yo‘li bilan voz kecha oladi. A.V.Asoskov Qozog‘istonda shunday holat bo‘lganligini qayd etgan [8, C.185]. Qozog‘iston Fuqarolik kodeksi dastlab Model Fuqarolik kodeksi asosida qabul qilingan bo‘lsa-da, keyinchalik unga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar natijasida Qozog‘iston Fuqarolik kodeksi Model Fuqarolik kodeksidan sezilarli ravishda farqlanishiga olib kelgan [9]. Biroq, ushbu o‘zgarishlarni yuridik shaxsning shaxsiy qonuni bo‘yicha ko‘rib chiqsak, shu ma’lum bo‘ladiki, Qozog‘iston ham Model Fuqarolik kodeksining 1211-moddasini hech bir o‘zgartishsiz qabul qilgan va uni o‘zgartirmasdan kelmoqda. Lekin yuridik shaxsning huquq layoqatini belgilashda ayrim MDH davlatlar uchun yangilik mavjud bo‘lib, unga ko‘ra, chet el huquqi bo‘yicha yuridik shaxs hisoblanmaydigan xorijiy tashkilotning fuqarolik huquqiy layoqati tashkilot tashkil etilgan mamlakat huquqi bilan aniqlanadi.

Shuningdek, mazkur tashkilotlarga nisbatan tijorat tashkilotlari bo‘lgan yuridik shaxslar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan Qozog‘iston Fuqarolik kodeksining tegishli qoidalari qo‘llaniladi, agar majburiyat mazmunidan va qonunchilikdan boshqacha holat kelib chiqmasa [10]. Aslini olganda, chet el huquqi bo‘yicha yuridik shaxs hisoblanmaydigan xorijiy tashkilotning shaxsiy qonunini belgilash barcha davlatlar va xalqaro hujjatlarda ko‘tariladigan jiddiy masalalardan emas, chunki yuridik shaxsning shaxsiy qonunini belgilab beruvchi har qanday mezon yuridik shaxsni tashkilot yoki tashkilot emasligini aniqlashga xizmat qiladi.

Masalan, bir yuridik shaxs tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qabul qiluvchi davlatga kirmoqchi. Bunday maqom esa qabul qiluvchi davlat tomonidan beriladi. Bunda mazkur davlat uni

bir vaqtning o‘zida yuridik shaxs va xorijiy davlatga mansubligi masalasini aniqlash uchun baribir uning shaxsiy qonuni bo‘lgan davlat qonunchiligiga murojaat qiladi.

1996 yil 17 fevralda qabul qilingan Model Fuqarolik kodeksining uchinchi qismi yuridik shaxsning huquqiy maqomini belgilab bergan. Shuningdek, ushbu Model qonun keyinchalik Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, O‘zbekiston, Rossiya davlatlarining Fuqarolik kodekslarini ishlab chiqish uchun asos bo‘ldi [11, C.51]. Model Fuqarolik kodeksiga ko‘ra yuridik shaxsning shaxsiy qonuni u tashkil etilgan mamlakat huquqi bilan belgilanadi, yuridik shaxsning huquq layoqati bilan bog‘liq masalalar esa MDHga a’zo davlatlarning fuqarolik kodekslarida belgilangan.

Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik kodeksi 1202-modda, 2-qismidagi yuridik shaxsning shaxsiy qonuni amal qiladigan sohasini belgilovchi qoidasi, Rossiya qonunchiligi uchun yangilik edi. Bunday qoida esa Model Fuqarolik kodeksida mavjud emas. Shu bilan birga, Model Fuqarolik kodeksida “yuridik shaxsning qonuni” tushunchasi mavjudligini qayd etish lozim. Ayni paytda, Rossiya Fuqarolik kodeksi 1202-moddasi, 2-qismidagi qoida MDH Model qonuni asosida qabul qilingan davlatlarning qonunchiligida uchramaydi. Faqat, Armaniston va Moldova Fuqarolik kodeksida Rossiya Fuqarolik kodeksi bilan mos keluvchi qoida mavjud. Armaniston Fuqarolik kodeksining 1272-moddasiga ko‘ra yuridik shaxsning shaxsiy qonuni u tashkil etilgan davlat qonuniga bog‘liq. Shaxsiy qonun asosida bir qator masalalar, jumladan u yoki bu tashkilot yuridik shaxs hisoblanishi, nomlanishiga nisbatan qanday talablar qo‘yilishi, yuridik shaxsni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish bo‘yicha, shu jumladan huquqiy vorislik bo‘yicha talablari, fuqarolik huquqlariga ega bo‘lish va fuqarolik majburiyatlarini qabul qilish tartibi, yuridik shaxsning ichki, shuningdek, uning ishtirokchilari bilan munosabatlari, o‘z majburiyatlari yuzasidan javob berish qobiliyati [12] tartibga solinadi. Bevosita O‘zbekiston fuqarolik qonunchiligida yuridik shaxsning shaxsiy qonuni qanday hal etilganiga to‘xtalib o‘tsak, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1175-moddasida “yuridik shaxs qaysi mamlakatda ta’sis etilgan bo‘lsa, shu mamlakatning huquqi mazkur yuridik shaxsning qonuni hisoblanadi”, deb qayd etilgan [13]. Ya’ni, O‘zbekiston fuqarolik qonunchiligi boshqa MDH davlatlari kabi inkorporatsiya mezoni ustuvorligini tan oladi va uni qonunda qo‘llaydi. O‘zbekiston Fuqarolik kodeksining mazkur normalaridagi qoidalarni Belarus Fuqarolik kodeksining 1111–1112-moddalarida, Qozog‘iston Fuqarolik kodeksining 1100–1101-moddalarida, Qirg‘iziston Fuqarolik kodeksining 1184–1185-moddalarida, Tojikiston Fuqarolik kodeksining 1206–1207-moddalarida uchratish mumkin.

Biroq, barcha MDHga a’zo davlatlar ham Model Fuqarolik kodeksi asosida harakat qilmagan. Ozarbayjon va Ukraina, Gruziya davlatlarining xalqaro xususiy huquq to‘g‘risidagi qonunlarining tahlili ushbu davlatlar qonunchiligining Germaniya kollizion huquqiga yaqinlashuvini ko‘rsatadi. Ozarbayjon Respublikasining

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Xalqaro xususiy huquq to‘g‘risidagi qonunining 12-moddasi yuridik shaxsning shaxsiy qonunini belgilab beradi [14]. Ozarbayjon qonunchiligi inkorporatsiya mezonini qo‘llaydi. Biroq, ushbu mezon nafaqat yuridik shaxsning o‘ziga, balki filial va vakolatxonalariga nisbatan ham tatbiq etiladi. Gruziya fuqarolik qonunchiligi MDH Model qonunidan farq qiladi, xususan, yuridik shaxsning shaxsiy qonuni masalasida ham. Gruziyaning 1998 yilda qabul qilingan Xalqaro xususiy huquq to‘g‘risidagi qonunida yuridik shaxsga oid yagona qoida mavjud bo‘lib, unga ko‘ra “yuridik shaxsning huquq layoqati va layoqatsizligi yuridik shaxsning boshqaruv organi amaldagi joylashgan mamlakat huquqi bilan aniqlanadi. Bunday tartib yuridik shaxsning filiallariga nisbatan ham qo‘llaniladi” [15]. Demak, Gruziya real o‘troqlik mezoni tarafdori.

Ukraina ham Gruziya singari o‘troqlik mezoni tarafdori (bu o‘rinda Ukraina va Gruziyaning ma’lum vaqt mobaynida MDHga a’zo bo‘lganligi inobatga olingan), lekin Gruziya qonunchiligidan farqli o‘laroq Ukrainaning 2005 yilda qabul qilingan Xalqaro xususiy huquq to‘g‘risidagi qonunining 25-moddasida yuridik shaxsning shaxsiy qonuni yuridik shaxs joylashgan davlat huquqi hisoblanadi. Yuridik shaxs joylashgan joy esa, ana shu davlat qonunchiligi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan yoki boshqa usulda tashkil etilgan joy nazarda tutiladi [16]. Xulosa qilish mumkinki, bir qarashda Ukraina boshqa MDH davlatlari kabi inkorporatsiya mezonini qo‘llayotgandek ko‘rinadi, aslida esa bu yerda rasmiy o‘troqlik mezoni haqida gap ketmoqda. Ya’ni, yuridik shaxsning joylashgan joyi bilan uning ro‘yxatdan o‘tgan yoki tashkil etilgan joyi bir-biriga mos kelishi talab etilmoqda.

ChatGPT сказал:

Ukraina Xalqaro xususiy huquq to‘g‘risidagi qonunining 25-modda, uchinchi qismida belgilangan yuridik shaxsning joylashgan joyini yuqorida ko‘rsatilgan shartlar asosida aniqlash imkoni bo‘lmasa, yuridik shaxsning ijro organi joylashgan davlat huquqi bilan aniqlanishi haqidagi qoida yuqoridagi fikrni asoslashga xizmat qiladi. Ayni paytda, 25-modda, ushbu Qonunning uchinchi qismida ushbu safar xuddi Gruziya singari real o‘troqlik mezoni haqida so‘z ketmoqda. Model Fuqarolik kodeksi qabul qilingandan so‘ng MDHga a’zo davlatlar qabul qilgan o‘zlarining Fuqarolik kodekslariga kiritilgan o‘zgarishlar orasida Moldova Fuqarolik kodeksi alohida o‘rin tutadi. Bunga bir qator sabablar bor. Birinchidan, 2671-moddadan iborat bo‘lgan Moldova Fuqarolik kodeksi oila, mehnat, uy-joy, atrof-muhit bo‘yicha ham asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Ikkinchidan, ushbu Kodeksda doktrinadan farqli o‘laroq “shaxsiy qonun” atamasidan emas, balkim “milliy qonun” atamasidan foydalanilgan.

Uchinchidan, Moldova Fuqarolik kodeksining 2594-moddasining birinchi qismida yuridik shaxsning shaxsiy qonuni aniqlanadigan mezon belgilab berilgan bo‘lsa, ikkinchi qismida esa ushbu qonun bilan tartibga solinadigan masalalar, ya’ni shaxsiy qonun doirasi bayon etilgan va ushbu masalalar

Rossiya Fuqarolik kodeksining 1202-moddasi, Armaniston Fuqarolik kodeksining 1272-moddasi bilan mos keladi. To‘rtinchidan, Moldova qonunchiligi qolgan MDH davlatlaridan farqli o‘laroq (Rossiya va Ukrainadan tashqari) inkorporatsiya mezonidan tashqari boshqa mezonlarni ham qo‘llash mumkinligini istisno etmaydi.

Moldova Fuqarolik kodeksining 2594-modda, to‘rtinchi qismiga ko‘ra, chet elda tashkil etilgan, biroq Moldova hududida asosiy tadbirkorlik faoliyatini olib borsa, mazkur yuridik shaxsning majburiyatlari yuzasidan Moldova qonuni, ya’ni ekspluatatsiya markazi mezoni yoki kreditorlar talabi bilan milliy qonun qo‘llanilishi mumkin. Biroq, Moldova qonunchiligi shaxsiy qonunning vakolatxona va filialga nisbatan qo‘llanishida turlicha yondashuv mavjud. Vakolatxonaga nisbatan yuridik shaxsning milliy qonuni qo‘llanilsa, filialga nisbatan esa u tashkil etilgan mamlakat huquqi qo‘llaniladi, bunda yuridik shaxsning milliy qonuni ahamiyatga ega emas [17].

O‘z navbatida, yuridik shaxs millatini aniqlash muammosiga to‘xtalsak, yuridik shaxsning davlatga mansubligini belgilashni tartibga soluvchi qoidalar MDH xalqaro shartnomalari va model qonunlaridan tashqari a’zo davlatlar o‘rtasida imzolangan investitsiya, soliq, huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomalarida ham mavjud.

1993 yil 24 dekabrda imzolangan “Investitsion faoliyat sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida”gi Bitimning 2-modda, ikkinchi xatboshisida inkorporatsiya mezonini o‘rnatilgan, ya’ni investitsiya faoliyatini amalga oshirmoqchi bo‘lgan har qanday yuridik shaxs taraflardan (a’zo davlatlardan) birining qonunchiligiga ko‘ra tashkil etilgan bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining MDHga a’zo davlatlar bilan imzolagan ikki tomonlama investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi xalqaro shartnomalarida yuridik shaxs millatini aniqlash uchun qo‘llaniladigan asosiy mezon – bu inkorporatsiya mezonidir (ayrim holatlarda inobatga olmagan holda. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya o‘rtasida 1994 yil 2 martida imzolangan Havo qatnovi to‘g‘risidagi bitimning 5-moddasida nazorat mezoni o‘rnatilgan [18]). Garchi, mazkur shartnomalarda inkorporatsiya mezoni haqidagi qoidalarning matni ma’lum ma’noda farq qilsa-da, mazmunan ularning bari yuridik shaxs millati mezonini ochish uchun xizmat qiladi. Ayrim ikki tomonlama investitsiya shartnomalarida esa ayni bir qoidalar o‘rnatilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Ozarbayjon Respublikasi hukumati o‘rtasida 1996 yil 27 mayda imzolangan “Investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi”gi Bitimning 1-modda, 4-bandida qayd etilgan “Yuridik shaxslar” atamasi bir Ahdlashuvchi Tomon davlat qonunchiligiga ko‘ra o‘z maqomini olgan va boshqa Ahdlashuvchi Tomon hududida investitsiyalarni amalga oshiradigan yuridik shaxslarni anglatadi” [19] degan qoida O‘zbekiston Respublikasining MDHga

a’zo boshqa davlatlar (Gruziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Litva, Moldova, Turkmaniston) bilan imzolagan investitsiya bitimlarida ham shunday belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining ikki tomonlama soliq solinishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda daromad va mol-mulkka solinadigan soliqlarni to‘lashdan bosh tortish holatlarini oldini olish to‘g‘risida MDHga a’zo davlatlar bilan imzolagan ikki tomonlama xalqaro shartnomalarning barchasida yuridik shaxslarga oid bir xil qoida o‘rnatilgan. Ayni paytda bu mezon, ya’ni yuridik shaxsning rezidentligi o‘troqlik mezoni bilan aniqlanishi O‘zbekiston Respublikasining Gruziya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Latviya, Litva, Moldova, Ozarbayjon, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina kabi davlatlar bilan imzolagan ikki tomonlama soliqka tortmaslik bo‘yicha xalqaro shartnomalarida ham mavjud. Shuningdek, ikki tomonlama xalqaro shartnomalar orasida huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomalarda ham yuridik shaxsning millatiga oid muhim qoidalar belgilanadi. O‘zbekistonning boshqa MDHga a’zo davlatlar bilan imzolagan shu mazmundagi shartnomalarida quyidagi qoidani uchratish mumkin “Yuridik shaxsning huquqiy layoqati u hududida ta’sis etilgan Ahdlashuvchi Tomon qonunchiligi bilan belgilanadi” [20].

Ikki tomonlama huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomalarda turlicha ifodalansa-da, biroq yuqoridagi mazmunni beruvchi qoidalar Latviya (22-modda), Gruziya (22-modda), Qirg‘iziston (22-modda), Litva (22-modda), Qozog‘iston (23-modda), Ozarbayjon (16-modda), Ukraina (23-modda) davlatlari bilan imzolagan shartnomalarida ham mavjud va bu mazkur shartnomalarning barchasida har ikki taraf yuridik shaxs huquqiy layoqatiga nisbatan inkorporatsiya mezonini qo‘llashini bildiradi. Ammo, ushbu shartnomalarda sudlarning vakolati bilan bog‘liq hollarda yuridik shaxslarga nisbatan o‘troqlik mezoni qo‘llaniladi. Yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda, yuridik shaxsning shaxsiy qonuni va uning millati masalasini “Lukoyl”ning O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi korxonalari misolida tahlil qilsak. Avvalo, quyidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz:

1. “Lukoil Uznefteprodukt” MCHJ O‘zbekistonda 2016 yil 23 noyabrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lib, avtomobil yoqilg‘isining chakana savdosi bilan shug‘ullanadi. Uning ta’sischilari “Lukoil International” Gmbh hamda “Sanoat Energetika Guruhi” MCHJ XK hisoblanadi. O‘z navbatida, “Lukoil International” Gmbh esa 1995 yil 3 iyunda Avstriyada ro‘yxatdan o‘tgan [21].

2. “Lukoil Uzbekistan Operating Company” MCHJ XK O‘zbekistonda 2004 yil 9 iyulda ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, faoliyat yo‘nalishi tabiiy gaz qazib chiqarish hisoblanadi [22]. 2016 yil 24 iyunda Kiprda ro‘yxatdan o‘tgan “Lukoil Overseas Uzbekistan” LTD esa uning yagona ta’sischisidir.

Har ikki misoldagi yuridik shaxslarning shaxsiy qonuni ular ro‘yxatdan o‘tgan joy bilan belgilanadi. Xususan, “Lukoil Uznefteprodukt” MCHJ hamda “Lukoil Uzbekistan Operating

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Company” MCHJ XKlarning yuridik shaxsning organlarini tashkil etish va faoliyat olib borish tartibi, shuningdek, ularning vakolatlari kabi masalalarni tartibga soluvchi shaxsiy qonuni O‘zbekiston qonuni hisoblanadi. Chunki, Fuqarolik kodeksining 1175-moddasiga asosan yuridik shaxs qaysi mamlakatda ta’sis etilgan bo‘lsa, shu mamlakatning huquqi mazkur yuridik shaxsning qonuni hisoblanadi.

Avval qayd etilganidek, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida yuridik shaxsning shaxsiy qonuni bilan tartibga solinadigan masalalar belgilab berilmagan. Biroq, ayrim qonunchilik hujjatlarida yuridik shaxsning shaxsiy qonuni bilan tartibga solinadigan masalalarni uchratish mumkin. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida”gi qonunining 13-moddasiga ko‘ra, bitim bo‘yicha ishlar bajarilishini tashkil etish, … hisob-kitob yuritish va hisobot berishni investorning topshirig‘iga binoan operator amalga oshiradi. Faoliyat sohasi ko‘rsatilgan ishlarni tashkil etish bilan cheklanadigan bunday operator sifatida investor tomonidan ana shu maqsadlarda O‘zbekiston Respublikasi hududida tashkil etiladigan filiallar yoki yuridik shaxslar yoxud ana shu maqsadlar uchun investor tomonidan jalb etiladigan yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan chet ellik yuridik shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Bunda investor operatorning harakatlari uchun xuddi o‘z harakatlari singari davlat oldida mulkiy javobgar bo‘ladi [23]. Vaholanki, O‘zbekiston Respublikasi “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasida esa mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar deb belgilangan [24]. “Lukoil Uzbekistan Operating Company” esa MCHJ hisoblanadi. Demak, O‘zbekiston Respublikasi “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida”gi qonunining 13-moddasi yuridik shaxs muassislarining (a’zolarining) uning majburiyatlari bo‘yicha javobgarligini belgilab bergan. Bizning misolda operator, ya’ni “Lukoil Uzbekistan Operating Company” MCHJ XKning davlat oldidagi mulkiy javobgarligi “Lukoil Overseas Uzbekistan” LTDga ham yuklatiladi.

Xulosa o‘rnida qayd etamizki, MDH mamlakatlarida yuridik shaxsning shaxsiy qonunini aniqlashda asosan inkorporatsiya mezoni ustuvorlik qilsa-da, ba’zi davlatlar (masalan, Gruziya va Ukraina) o‘troqlik mezonini qo‘llashga moyil. Bu yondashuvdagi farqlar xalqaro xususiy huquqda, ayniqsa, transchegaraviy nizolarni hal qilishda muayyan murakkabliklarni keltirib chiqaradi. MDH doirasida yuridik shaxs millatini aniqlash uchun asosiy mezon sifatida inkorporatsiya mezoni belgilangan bo‘lib, bu ko‘p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalarda, jumladan, investitsiya, soliq va huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi bitimlarda ham o‘z aksini topgan. Ushbu yondashuv huquqiy

munosabatlarning barqarorligini ta’minlashga xizmat qilsa-da, a’zo davlatlarning milliy qonunchiligidagi turli xil yondashuvlar kelgusida nizolarning yuzaga kelishi ehtimolini oshiradi.

MDH mamlakatlarining huquqiy tizimlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Model Fuqarolik kodeksi unifikatsiya jarayoniga asos bo‘lgan. Biroq, uning majburiy hujjat emasligi va davlatlarning milliy qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritish huquqi bu birxillashtirish jarayonini sustlashtiradi. Shu sababli, MDHda yuridik shaxsning shaxsiy qonuni va millati masalasida yagona va samarali huquqiy mexanizm yaratish zarur. Bu borada Yevropa ittifoqining boy sud amaliyoti va huquqiy tajribasini o‘rganish, shuningdek, mavjud xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilikni muvofiqlashtirish MDHdagi iqtisodiy integratsiyani yanada mustahkamlashga yordam beradi.

ФОЙДАЛАНИГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

Соглашение стран СНГ от 20.03.1992 о порядке разрешения споров, связанных с осуществлением хозяйственной деятельности (Agreement on the procedure for resolving disputes related to the implementation of economic activities)

Конвенция СНГ о правовой помощи и правовых отношениях по гражданским, семейным и уголовным делам (CIS Convention on Legal Assistance and Legal Relations in Civil, Family and Criminal Matters) (Заключена в г. Минске 22.01.1993) (ред. от 28.03.1997)

Конвенция СНГ о правовой помощи и правовых отношениях по гражданским, семейным и уголовным делам (CIS Convention on Legal Assistance and Legal Relations in Civil, Family and Criminal Matters) (Кишинев, 7 октября 2002 г.)

Конвенция СНГ о межгосударственном лизинге (CIS Convention on Interstate Leasing) от 25 ноября 1998 года

Directive (EU) 2017/1132 of the European Parliament and of the Council of 14 June 2017 relating to certain aspects of company law.

Regulation (EU) No 1215/2012 of the European Parliament and of the Council of 12 December 2012 on jurisdiction and the recognition and enforcement of judgments in civil and commercial matters.

C. Hartley, T. (2006). The Modern Approach to Private International Law. International Litigation and Transactions from a Common-Law Perspective. General Course on Private International Law (Volume 319). In The Hague Academy Collected Courses Online / Recueil des cours de l'Académie de La Haye en ligne. Brill | Nijhoff.

Асосков А. В. Правовые формы участия юридических лиц в международном коммерческом обороте (Legal forms of participation of legal entities in international commercial turnover). — М.: Статут, 2003. 348 с.

Гражданский кодекс Республики Казахстан (Особенная часть) (Civil Code of the Republic of Kazakhstan (Special Part))

Модельный Гражданский кодекс для государств — участников СНГ (часть третья) (Model Civil Code for the CIS Member States (Part Three))

Звеков В. П. Коллизии законов в международном частном праве (Conflicts of laws in international private law) / В.П. Звеков; Ин-т законодательства и сравнит. правоведения при Правительстве Рс. Федерации. — Москва: Волтерс Клувер, 2007. — 392 с.

Гражданский Кодекс Республики Армения (Civil Code of the Republic of Armenia).

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (Civil Code of the Republic of Uzbekistan).

Закон Азербайджанской Республики “О международном частном праве” (Law of the Republic of Azerbaijan “On International Private Law”)

Закон Грузии о международном частном праве (Law of Georgia on International Private Law).

Закон Украины «О международном частном праве» (Law of Ukraine “On International Private Law”).

Гражданский кодекс Республики Молдова (Civil Code of the Republic of Moldova).

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Rossiya Federatsiyasi Hukumati o‘rtasida Havo qatnovi to‘g‘risida bitim (Agreement between the Government of the Republic of Uzbekistan and the Government of the Russian Federation on Air Transport).

O‘zbekiston Hukumati bilan Ozarbayjon Respublikasi Hukumati o‘rtasida investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi Bitim (Agreement between the Government of Uzbekistan and the Government of the Republic of Azerbaijan on the reciprocal promotion and protection of investments)

O‘zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o‘rtasidagi fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi shartnoma (Agreement between the Republic of Uzbekistan and Turkmenistan on legal assistance and legal relations in civil, family and criminal matters)

https://ru.simil.io/unternehmen/lukoil-international-gmbh

https://b2bhint.com/ru/company/cy/lukoil-overseas-uzbekistan-ltd--%CE%97%CE%95%20357155

O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida”gi qonuni (Law of the Republic of Uzbekistan “On Product Distribution Agreements”)

O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi qonuni (Law of the Republic of Uzbekistan “On Limited Liability and Additional Liability Companies”)